



## NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



### NAVOIY VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi  
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*


So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2023-yil 1-avgust holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 22 299 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 19 996 ta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 92,7 foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 91,9 foiz) tashkil etdi.

## Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar


*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1-avgust holatiga ko‘ra, birlikda.*




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2023- yil yanvar-iyul holatiga ko‘ra, birlikda






Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o‘tgan yilga nisbati (foizda)



2023- yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda savdo (74 taga), yashash va ovqatlanish (37 taga) oshganligini ko‘rish mumkin.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha yanvar-iyul oylarida mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar 1 634 ta, xususiy korxonalar 581 ta, oilaviy korxonalar 260 tani tashkil etdi.

## Hududlar kesimida


Navoiy sh.	433	Zarafshon sh.	184
Karmana t.	384	Nurota t.	162
Qiziltepa t.	318	Konimex t.	155
Xatirchi t.	291	Tomdi t.	102
Navbahor t.	250	G‘ozg‘on sh.	63
Uchquduq t.	195		

2023-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar



2023-yil 1-avgust holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2020-yilning mos davriga nisbatan quyidagi sohalarda korxonalar sonining sezilarli o'sishi bilan ifodalash mumkin: tashish va saqlashda 600 tadan 773 taga (o'sish 173 ta), savdoda 6 300 tadan 8 205 taga (o'sish 1 905 ta), sanoatda 3 150 tadan 3 210 taga (o'sish 60 ta).

## Hududlar kesimida


Navoiy sh.	4 862	Nurota t.	1 556
Karmana t.	3 230	Konimex t.	1 009
Qiziltepa t.	2 983	Uchquduq t.	929
Xatirchi t.	2 689	Tomdi t.	649
Navbahor t.	2 331	G'ozg'on sh.	394
Zarafshon sh.	1 667		

2023- yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2023-yil yanvar-iyul oyida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 2 478 ta bo'lib, shundan:


- mikrofirmalar va kichik korxonalar 2 471 ta;
- yirik korxonalar 6 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Navoiy sh.	411	9,6 %	Uchquduq t.	192	23,6 %
Karmana t.	371	12,5 %	Nurota t.	158	11,5 %
Qiziltepa t.	312	11,4 %	Konimex t.	153	17,4 %
Xatirchi t.	288	12,0 %	Tomdi t.	100	17,6 %
Navbahor t.	248	12,5 %	G'ozg'on sh.	63	17,4 %
Zarafshon sh.	182	11,8 %			

2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- avgust holatiga 20 092 taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 160,4 foizni tashkil etdi (7 564ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 40,8 foiz, sanoat – 16,0 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 12,7 foiz, qurilish – 7,1 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,3 foiz, tashish va saqlash – 3,8 foiz, axborot va aloqa – 1,3 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,4 foiz, boshqa turlari – 10,6 foiz.

## Hududlar kesimida


Navoiy sh.	4 279	Nurota t.	1 372
Karmana t.	2 977	Konimex t.	880
Qiziltepa t.	2 747	Uchquduq t.	812
Xatirchi t.	2 401	Tomdi t.	569
Navbahor t.	2 155	G'ozg'on sh.	362
Zarafshon sh.	1 538		

2023- yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.


Shunda, 2023- yil yanvar-iyul oyida savdo sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022-yilning mos davriga nisbatan 793 tadan 867 taga (o'sish 74 taga), yashash va ovqatlanish – 147 tadan 184 taga (o'sish 37 taga) ko'paydi.

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Navoiy sh.	411	9,7 %	Uchquduq t.	190	23,5 %
Karmana t.	369	12,5 %	Nurota t.	158	11,6 %
Qiziltepa t.	312	11,4 %	Konimex t.	153	17,6 %
Xatirchi t.	288	12,0 %	Tomdi t.	99	17,5 %
Navbahor t.	248	11,5 %	G'ozg'on sh.	62	17,2 %
Zarafshon sh.	181	11,8 %			

2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Navoiy shahrida (21,2 foiz), Karmana (14,8 foiz), Qiziltepa (13,7 foiz), Xatirchi (12,0 foiz) va Navbahor (10,7 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

## Hududlar kesimida


Navoiy sh.	4 249	Nurota t.	1 367
Karmana t.	2 962	Konimex t.	871
Qiziltepa t.	2 737	Uchquduq t.	808
Xatirchi t.	2 398	Tomdi t.	567
Navbahor t.	2 149	G'ozg'on sh.	360
Zarafshon sh.	1 528		



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat  
ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar  
2023- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda

### Hududlar kesimida


Navoiy sh.	224
Zarafshon sh.	53
G‘ozg‘on sh.	16
Konimex t.	332
Qiziltepa t.	283
Navbahor t.	350
Karmana t.	373
Nurota t.	372
Tomdi t.	190
Uchquduq t.	64
Xatirchi t.	318



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


### Baliq ovlash va akvakultura



2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda


**Hududlar kesimida**

Navoiy sh.	645
Zarafshon sh.	320
G'ozg'on sh.	204
Konimex t.	91
Qiziltepa t.	334
Navbahor t.	267
Karmana t.	477
Nurota t.	254
Tomdi t.	92
Uchquduq t.	154
Xatirchi t.	372



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi uch yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o'sish sur'ati 101,9 foizni tashkil etdi.


Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 14,4 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 90,9 foizini ishlab chiqarish sanoati (2020 yilning mos davriga nisbatan o'sish 99,6 foizni tashkil etdi), 6,9 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish 128,9 foizni tashkil etdi), 1,8 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (o'sish 150,0 foizni tashkil etdi) va 0,4 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish 130,0 foizni tashkil etdi) tashkil etgan.



2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Navoiy sh.	409
Zarafshon sh.	129
G'ozg'on sh.	12
Konimex t.	33
Qiziltepa t.	214
Navbahor t.	144
Karmana t.	238
Nurota t.	103
Tomdi t.	30
Uchquduq t.	34
Xatirchi t.	88



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 54,0 foiz ulushni tashkil etib, 2020 yilning mos davriga nisbatan o'sish 103,2 foizni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 13,4 foiz ulushni tashkil etib, 2020 yilning mos davriga nisbatan o'sish 176,1 foizni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 32,6 foiz ulushni tashkil etdi.

192



Fuqarolik  
obyektlarini qurish

468

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

774


Bino va  
inshootlar qurish



2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Navoiy sh.	1 768
Zarafshon sh.	511
G'ozg'on sh.	69
Konimex t.	219
Qiziltepa t.	1 360
Navbahor t.	1 103
Karmana t.	1 183
Nurota t.	344
Tomdi t.	182
Uchquduq t.	346
Xatirchi t.	1 120



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,8 foizi yoki 8 187 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 72,9 foiz ulushni tashkil etib, 2020 yilning mos davriga nisbatan o'sish 126,3 foizni tashkil etdi
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 18,3 foiz ulushni tashkil etib, 2020 yilning mos davriga nisbatan o'sish 141,7 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 8,8 foiz ulushni tashkil etib, 2020 yilning mos davriga nisbatan o'sish 143,2 foizni tashkil etdi.

774

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

1 505

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


5 977

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

**Hududlar kesimida**

Navoiy sh.	276
Zarafshon sh.	203
G'ozg'on sh.	6
Konimex t.	43
Qiziltepa t.	164
Navbahor t.	71
Karmana t.	183
Nurota t.	59
Tomdi t.	22
Uchquduq t.	89
Xatirchi t.	155



2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2019-yilning mos davriga nisbatan 113,4 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgo'ahlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1-avgust holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 10,9 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 89,1 foiz ulushini tashkil etdi.

138

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 133


Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida


Navoiy sh.	82
Zarafshon sh.	23
G'ozg'on sh.	5
Konimex t.	6
Qiziltepa t.	31
Navbahor t.	15
Karmana t.	41
Nurota t.	10
Tomdi t.	2
Uchquduq t.	10
Xatirchi t.	40



2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 16,2 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish 130,3 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 37,0 foizini tashkil etdi, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish 110,0 foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 46,8 foizini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish 112,7 foizni tashkil etdi.



2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Navoiy sh.	140
Zarafshon sh.	37
G'ozg'on sh.	3
Konimex t.	5
Qiziltepa t.	32
Navbahor t.	17
Karmana t.	45
Nurota t.	10
Tomdi t.	9
Uchquduq t.	12
Xatirchi t.	38



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 284 tasi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

91,7 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2020-yilning mos davriga nisbatan o'sish 120,4 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 3,5 foizni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 200,0 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 4,9 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 130,8 foizni tashkil etdi;

17

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

12




319

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

**Hududlar kesimida**

Navoiy sh.	220
Zarafshon sh.	53
G'ozg'on sh.	3
Konimex t.	6
Qiziltepa t.	146
Navbahor t.	55
Karmana t.	180
Nurota t.	14
Tomdi t.	11
Uchquduq t.	15
Xatirchi t.	70




2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,5 foiz ulushini tashkil etdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati 100,8 foizni tashkil etdi;

ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 122,4 foizni;

pochta va kuryerlik yo'nalishi 96,6 foizni tashkil etdi.






**Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy  
shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot**  
2023- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda

**Tadbirkorlik  
subyektlari soni**

**Tadbirkorlik subyektlarining  
jamiga nisbatan ulushi**




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2023- yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



**Mas'uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Navoiy sh.	332	11,4 %	Nurota t.	123	16,1 %
Qiziltepa t.	292	14,1 %	Konimex t.	78	17,5 %
Karmana t.	255	14,7 %	Zarafshon sh.	66	11,4 %
Uchquduq t.	175	24,8 %	Tomdi t.	31	10,9 %
Navbahor t.	136	14,0 %	G'ozg'on sh.	7	7,9 %
Xatirchi t.	137	16,2 %			


2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 20 092 ta tijorat korxonalarining 11 397 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) qo'yidagicha bo'ldi: savdo – 36,4 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 15,8 foiz, sanoat – 14,1 foiz va qurilish – 9,8 foizni tashkil etdi.


## Hududlar kesimida

Navoiy sh.	2 910	Uchquduq t.	706
Qiziltepa t.	2 071	Zarafshon sh.	580
Karmana t.	1 730	Konimex t.	445
Navbahor t.	971	Tomdi t.	284
Xatirchi t.	848	G'ozg'on sh.	89
Nurota t.	763		


2023- yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



**Xususiy korxonalar** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

2023- yil yanvar-iyul oyida tashish va saqlashda yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 1 taga, qurilish 11 taga, yashash va ovqatlanishda 4 taga ko'paygan.


## Hududlar kesimida

Xatirchi t.	123	12,3 %	Navoiy sh.	33	4,8 %
Zarafshon sh.	105	13,0 %	Karmana t.	30	6,5 %
Navbahor t.	81	14,3 %	Nurota t.	12	3,7 %
Konimex t.	64	26,2 %	Uchquduq t.	9	13,6 %
Tomdi t.	66	28,8 %	Qiziltepa t.	7	1,9 %
G'ozg'on sh.	51	21,2 %			


2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 5 001 tani tashkil etdi.


Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining o'tgan yilga nisbatan ko'payishiga tashish va saqlash sohalari (125,0 foiz), shahar va tumanlar kesimida esa – G'azg'on (125,5 foiz) shahri va Tomdi (127,9 foiz), Konimex (104,7 foiz) tumanlari ta'sir ko'rsatmoqda.

## Hududlar kesimida


Xatirchi t.	998	Nurota t.	325
Zarafshon sh.	808	Konimex t.	251
Navoiy sh.	686	G'ozg'on sh.	244
Navbahor t.	565	Tomdi t.	229
Karmana t.	464	Uchquduq t.	66
Qiziltepa t.	375		

2023- yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



**Oilaviy korxon** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxon ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxon ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxon faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


## Hududlar kesimida

Karmana t.	85	Zarafshon sh.	11
Navoiy sh.	46	Konimex t.	11
Navbahor t.	31	Uchquduq t.	8
Xatirchi t.	28	G'ozg'on sh.	4
Nurota t.	22	Tomdi t.	1
Qiziltepa t.	12		

2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra 2019- yilning mos davriga nisbatan 1 462 taga ko'paygan. Bu esa quyidagi sohalardagi korxonalar: savdoda – 1071 taga, sanoat bo'yicha 191 taga sonining sezilarli ko'payishi bilan izohlanadi.

## Hududlar kesimida


Karmana t.	769	Konimex t.	177
Navoiy sh.	633	Zarafshon.	145
Navbahor t.	610	Tomdi t.	48
Xatirchi t.	523	Uchquduq t.	34
Qiziltepa t.	291	G'ozg'on sh.	30
Nurota t.	260		

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot


2023- yil yanvar-iyul holatiga ko‘ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Yillar kesimida soni



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Savdo



Tashish va saqlash



Boshqa turlar

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

## Hududlar kesimida


Navoiy sh.	9	Xatirchi t.	2
Karmana t.	6	Konimex t.	1
Nurota t.	3		
G‘ozg‘on sh.	2		



2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 1,1 barobarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 43 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu respublikada xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 21,0 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 16,1 foiz), Eron Islom (10,7 foiz), Turkiya (ulushi 6,8 foiz), Janubiy Koreya (ulushi 5,9 foiz) va Qozog'iston (ulushi 2,9 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

## Hududlar kesimida

Karmana t.	59	Konimex t.	10
Navoiy sh.	56	Navbahor t.	8
Nurota t.	15	Tomdi t.	8
Qiziltepa t.	15	Uchquduq t.	5
Zarafshon sh.	13	G'ozg'on sh.	5
Xatirchi t.	11		

*2023- yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, birlikda*

O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 103 tasi qo'shma korxonalar, 102 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

*2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda***xorijiy korxonalar****qo'shma korxonalar**

<b>18</b>	Navoiy shahri	<b>38</b>
<b>7</b>	Zarafshon shahri	<b>6</b>
<b>2</b>	G'ozg'on shahri	<b>3</b>
<b>5</b>	Konimex tumani	<b>5</b>
<b>8</b>	Qiziltepa tumani	<b>7</b>
<b>4</b>	Navbahor tumani	<b>4</b>
<b>38</b>	Karmana tumani	<b>21</b>
<b>6</b>	Nurota tumani	<b>9</b>
<b>2</b>	Tomdi tumani	<b>6</b>
<b>4</b>	Uchquduq tumani	<b>1</b>
<b>8</b>	Xatirchi tumani	<b>3</b>

2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



## **Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri**

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Statistik registrlarni yuritish  
va tizimli xizmat  
koʻrsatish boʻlimi  
Tel.: 79.223.42.67